



Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat
tibiyot instituti davolash fakulteti 301-guruh
talabasi tayyorlagan

REFERAT

Bajardi: Musulmanova Dildora

Tekshirdi: Salomova Hanifa Jahanovna

Mavzu: Sog`liq va kasallik haqida tushuncha

BUXORO - 2014 yil.



Sog`liq va kasallik haqida tushuncha

Sog`liq – bu hayotimizning asosiy boyligi, u ierarxiyada yuqori pog`onani egallaydi. Sog`liq – odam baxt-saodatining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi, hamda omadli ijtimoiy va iqtisodiy asosiy shart – sharoitlardan biri hisoblanadi. Bilimdonlik, ruhiy, jismoniy va faollik potensialining takomillashuvi faqatgina sog`lom jamiyat uchun xosdir.

Butun dunyo sog`liqni saqlash tashkiloti mutahassislari tashhisida, **sog`liq – bu, butun jismoniy, ruhiy va ijtimoiy takomillashish, aksincha faqatgina kasallik va jismoniy yetishmovchilikmasdir.**

Boshlang`ich rossiyalik olimlar fikricha, bu tashhis aniqmas. Masalan, A. G. Shedrin quyidagi qonunni taklif etadi: “Sog`liq – bu, insonga aniq ijtimoiy va iqtisodiy atrof – muhit ta`sirida uning biologik va ijtimoiy vazifasini yoritib beradigan takomillashib borayotgan butun dinamik holat (ijobiy va sakbiy ko`rsatkichlarni o`z tarkibiga olgan holda)”.

Ushbu tashhisni tahlil qilgan holda birinchi navbatda sog`liq, olingan ma`lumotlarda sog`liq bor yoki yo`qligini statistikada tahlil qilinishini ko`rishimiz mumkin. Ikkinchi tashhis sog`liqni dinamikada tasavvur etadi, odam organizmi takomillashgani sari sog`liq ham shu bilan bir qatorda rivojlanishini ko`rsatadi. Bundan tashqari, tashhisda sog`liq irsiy programmalashtirilganiga katta urg`u beriladi. Ushbu programma mukamallashishi aniq biologik va ijtimoiy omillar ta`siri ostida odam yashashi va rivojlanishiga bog`liq (biologik atrof – muhit va ta`lim – tarbiya). Hayratlanarlisi shundaki, bu yerda fikr sog`liq -



tug`ma tashuvchanlik mahsuli (ijobiy va salbiy) haqida borayapti, faqatgina tuxum hujayraning urug`lanish davridan boshlab davomiy ontogenez davrida takomillashadi

Sog`liqning zamonaviy konsepsiyasi uning asosiy jismoniy, ruhiy tarkibini ajratib olishga imkon yaratib beradi.

Jismoniy tarkibiga b`oy uzunligining darajasi va organizm organ va sistemalarining takomillashishi, shuningdek, rivojlanishning hozirgi holati kradi. Bu protsessning asosi jismoniy mehnatga layoqatliligini va insonning tashqi muhitga sharoitlariga adekvat moslashuvini ta`minlovchi morfologik va funksional qayta takomillashuv va zahira hisoblanadi.

Ruhiy tarkibi – bu motivatsiya – emotsiya, faylasuf fikr – mushohadalari bilan aniqlanadigan ruhiy atrof – muhit holati. Uning asosini aqlan mehnatga layoqatliligi va insonning adekvat xatti – harakatini ta`minlab beradigan emotsional qulaylik tashkil etadi.

Xatti – harakatlar – bu, inson holatining tashqi ko`rinishi hisoblanadi. U xulq – atvorning muomala qilishni bilgan holda adekvatlik pog`onasida ifodalanadi. Uning asosini hayotning muvozanati (faol, faolmas, salbiy) va atrof – muhit omillarining (biologik va ijtimoiy) bir biriga ta`sirchanlik adekvatligini ifodalaydigan shaxslar o`rtasidagi munosabat, hamda qattiq mehnatga layoqati tashkil etadi.

Zamonaviy hayotning shart – sharoitlari yoshlarning sog`liqka bo`lgan talabchanligini oshirishga imkon yaratadi. Shuning uchun yosh insonlar uchun eng asosiysi – bu sog`lom bo`lishdir.



Davlat va butun jamoatning umumiy olgan holda muhim vazifasi aholi sog`ligidan qayg`urish hisoblanadi. Sog`liq nima, degan savolga, quyidagi javobni bersak o`rinlidir: kasallanmagan organizmning o`zini yaxshi his eta bilish qobiliyati sog`liq hisoblanadi. Shuning uchun dastlab kasallik tushunchasini aniqlashtirib olishimiz lozim. “Sog`liq” va “Kasallik” tushunchalarini ajratib olish osonmas. Ko`pincha kasallik oqibatida hayotda yashahga bo`lgan layoqatini o`zgarishi, shikastlanishi, defect, qaysiki hayotiy muhim funksiyalarni buzilishi vujudga keladi.

Kasallik haqidagi tushuntirishlar juda ham ko`p: normal hayotga layoqatlilikning buzilishi, organizm yoki uning biror qismining adaptatsiyasi, atrof – muhitga adaptatsiyasi, organizmning tashqi muhitga bog`liqligi, gomeostaz (organizm ichki muhitining doimiyligi), butun inson organizmi funksiyalarini namoyon eta olmaslik qobiliyati va hokazo. Kasallik kelib chiqishining ko`pgina teoriyalari mavjud: ijtimoiy (kasallik bu ijtimoiy dezadaptatsiyasining natijasidir), energetik (kasallik inson organizmi energiyasining normada buzilishi natijasidir), biologic (asosiy kasallik organizm biologik ritmi bilan tabiat ritmining o`zaro bog`liqliligining buzilishi hisoblanadi) va hokazo.

Butun dunyo sog`liqni saqlash saqlash klassifikatsiyasini ma`qullagan holda, kasallik- bu, tashqi va ichki muhit omillari ta`sirida kompensator – moslashuv jarayonlari, organizm funksiya va strukturalarini buzilishi hisoblanadi. Kasallik atrof – muhitga ta`sirlanishning umumiy yoki mahalliy pasayishi va bemorning hayotga layoqatliligining chegaralanganligidir.



Sog`liq haqida gapirishdan oldin, insonning ikkilamchi borlig`i haqida so`z yuritishimiz kerak: bir tomondan, inson biologic dunyoning ajralmas qismi hisoblanadi (inson – homo sapiens, umurtqalilar turkumi, primatlar turkumi, kichik sutemizuvchilar – yerdagi organizmning yuqori takomillashuv pog`onasi), boshqa tomondan – inson ijtimoiy borliq (jamoat), mehnatni qurol sifatida foydalanishga va takomillashishiga va tashqi dunyoni o`zgartirishga layoqatli. Bu mavjudot o`z bilimini yuksak takomillashgan miya va nutq a`zolarining rivojlanganligi hisobiga namoyon etadi.

Qadim dunyoning faylasuf va shifokorlari insonni tabiat, dunyo, kosmos kabi deb hisoblagan. Odam – bu mikrokosmos va makrokosmos, u ham xuddi shu elementlardan iborat: suv, havo, olov va hokazo. Shu qatorda, sog`liq bu elementlarning bir xil muvozanati, kasallik esa – bu muvozanatning buzilishidir. Ayrim faylasuflarda inson hayotini kuzatishlari natijasida , inson hayotidagi ijtimoiy omillarning ta`sirini tushuntirish ularning hayot mazmuniga aylangan. Tibbiyot, tarix va boshqa fanlarni rivojlanishi bilan bir qatorda, odam hayotida ijtimoiy omillarning ahamiyati isbot va kuzatuvlar natijasida to`planib bordi. Ayniqsa bu hodisa faoliyat, ruhiy dunyo, insonlar muloqoti o`z aksini topgan Uyg`onish davrida takomillashdi.

Yangilanish davrida bu qarashlar yuqori takomillashgan. Gelvetskiy yozgan, odam, bu – mehnat qurollarini foydalanishga layoqatli tashqi ko`rinishi bilan ajralib turadigan hayvon.



Kasallik va sog`liq – bu hayotni ikki tomonidir. Ular doimo birgalikda va qarama – qarshilikdadir.

Hozircha kasallikni 40 dan ortiq turi ta`rifi bor, lekin umumiy qabul qilingani yo`q.

Kasallikni ta`riflashda quyidagilarga e`tabor berish kerak:

1. Organizm bir – butunligini e`tiborga olish kerak, chunki kasal organi o`zini emas, kasal odamni davolaymiz.
2. Organizmni tashqi muhit bilan o`zaro munosabatini nazarda tutish kerak. Kasal organizm tashqi sharoitga moslasha olmaydi.
3. Kasalliklarda struktur va funksional munosatlarni e`tiborga olish kerak, chunki bir tomondan struktura buzilsa, ikkinchi tomondan a`zolari funksiyasi buziladi.
4. Kasallik vaqtida organizmda ikki xil jarayon bo`ladi: bir tomondan shikastlanish, ikkinchi tomondan esa himoya – moslashuv jarayonlari. Bo`lajak vrachlar shu ikki jarayon belgilarini aniqlay olishlari kerak. Davolash yo`llari ham shularga qaratilgan bo`lishi kerak.
5. Kasallikni aniqlashda evolyutsion taraqqiyotni nazarda tutish kerak, chunki kasalliklar jonzo`tni qaysi evolyutsion taraqqiyot jarayondaligiga qarab har – xil bo`lishi mumkin. Hayvonlarda kasallik bu biologik protsessdir.



6. Bemor mehnat qobiliyatini yo`qotishini hisobga olinadi. Shularni nazarda olib kasallikka quyidagicha ta`rif beramiz.

Kasallik, bu organizmni kasal chaqiruvchi faktorlarining shikastlovchi ta`siriga nisbatan sifat jihatdan o`zgargan holati bo`lib, bunda turli struktura va funksional o`zgarishlar bilan birga himoya – moslashuv reaksiyalari yuzaga kelib, organizmni tashqi sharoitga moslashishi buziladi va ko`pincha mehnat faoliyatining pasaygan holatidir.

Demak, kasallik asosida ikki bir – biriga qarama – qarshi jarayonlar shikastlanish va himoya – moslashuv reaksiyalari yotadi. Masalan: abtsessda to`qimalarni o`lishi bilan bir vaqtda unga qarama – qarshi himoya reaksiyalar leykotsitlarni emigratsiyasi, fagotsitozni aktivlashishi, yallig`lanish atrofida bar`er paydo bo`ladi. Yoki lixoradkada isitmani oshishi, bosh og`rig`i, ish qobiliyatini pasayishi bilan berilganda antitelalar ishlab chiqarish tezlashadi, fagotsitoz aktivlashadi va hokazo.





Xullas, kasallik ikki qarama – qarshi jarayonlarning dialektik birligi va doimo kurashdaligidan iboratdir. Shu kurash kasallikka ma`lum yo`nalish beradi. Bu jarayonlarni kasal odamda aniqlash qiyin. Vrachlarning asosiy vazifasi aynan kasalda qanday o`zgarishlar himoya – moslashuv jarayonini ifodalaydi, qaysilari shikastlanishniki ekanligini aniqlashdir. Bu jarayonlarni to`g`ri tushunish vrachga to`g`ri davolash yo`llarini qo`llashga imkon beradi.

Butun dunyo sog`liqni saqlash tashkiloti mutaxassislarining ta`rifi bo`yicha **sog`liq** – bu fizik (jismoniy), ruhiy va sotsial hotirjamlikdir. Ya`ni sog`liq faqat kasallik yo`qligi emas, hatto jismoniy va sotsial nuqsonlar ham bo`lmasligidir.

